

CHO'LPONNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Cho'lpon adabiy-tanqidiy merosining o'rganilishi. Cho'lpon shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, publitsist bo'lish bilan birga munaqqid, o'ziga xos qiyofali san'atshunos edi. Uning adabiy-tanqidiy maqolalari xalq ma'naviyatini shakllantirishda, adabiy-estetik didni o'stirishda, badiiy adabiyotimiz taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Yangi o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi tarixini Cho'lpon adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur etish qiyin.*

***Kalit so'zlar:** Cho'lpon, adabiy muhit, qarash, tanqid, "Kecha va kunduz".*

Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini tuzib, bibliografiyasini e'lon qilgan N.Yo'ldoshev ko'rsatishicha, shoir 1914— 1937-yillar mobaynida chop etgan adabiytanqidiy maqolalar soni 70 ga yaqindir. Shu ma'lumotning o'ziyoq Cho'lponni munaqqid sifatida o'rganish muhim ekanini ko'rsatadi. To'g'ri, gap bu o'rinda son-sanoqdagina emas, maqolalarning ilmiynazariy qimmatiga haqida, albatta. Cho'lpon maqolalari esa, eng awalo, ana shu jihati bilan qadrlidir. «Adabiyot yashasa, millat yashar». 1913-yilda Cho'lpon I.G'aspiraliga maktub yozgan va «Tarjumon»da bosilgan. «Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida Cho'lponning dastlabki tanqidiy asarlaridan biri — «Adabiyot nadur?» degan maqolasi e'lon qilinadi. Uni yozganida Cho'lpon 16 yoshda edi. Maqola shaklan ixcham bo'lsa-da, mazmuni g'oyat teran. 16 yashar o'smirning adabiyot haqida shunday tiyraklik bilan fikr yuritishi chindan-da, uning yuksak iste'dodidan dalolat beradi. Cho'lpon bu yoshda yozgan she'rlari ichida teranlikda, chuqurlikda ushbu maqola bilan bahslasha, yoki tenglasha oladiganini uchratish qiyin (biri badiiy, ikkinchisi publitsistik mohiyatli bo'lsa-da). Shunga ko'ra, ehtimol, she'riyatdan ham ko'ra adabiy tanqidga qiziqish va u haqdu astoydil o'y-fikrga berilish Cho'lponda ertaroq kechgan bo'lsa, ajab emas, degan taxmin ham bo'lishi mumkin. Burilish pallalarida har bir xalqning buyuk farzandlari, buyuk adiblar ana shu savolga javob izlagan va hatto, xuddi shu sarlavha bilan maqolalar e'lon qilgan. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Zéro, Cho'lpon ham o'zbek xalqining ana shunday buyuk farzandlaridan biri edi. O'z davrida Cho'lponning bir qancha zamondoshlari ham «Adabiyot, san'at nima?» degan savollarga javob izladi. Ozar, qozoq, tatar adabiyotlarida (o'z vaqtida yaxlit «Turkiston adabiyoti - deb yuritilgan adabiy jarayonida ham) bu masalalar atrofida tez-tez fikr yuritilgani ma'lum. Yuqoridagi maqolasida Cho'lpon, avvalo, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to'g'risida aniq va tiniq fikr yuritadi. Uning fikricha, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma'naviyatini ta'minlaydigan omildir. Shu asosda u «Adabiyot yashasa-millat yashaydi» degan juda katta va qat'iy

xulosaga keldi. Yoki uni o'zbek xalqining tarixi mobaynida adabiyot haqida aytilgan eng muhim va aniq dasturiy fikr deb baholash mumkin. «Ha, to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdur. Adabiyot yashasa-millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotning taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qilib, sekin-sekin inqiroz bo'lur». Cho'lpon Sharq klassiklari, arab, turk, hind yozuvchilarining asarlari bilan puxta tanish edi, u mustaqil o'qib-o'iganish oqibatida, o'zi yashagan davrdagi ma'rifatparvarlik va estetik g'oyalari ta'sirida g'oyat yuksak madaniy saviyaga erishdi. Cho'lpon adabiyotning obrazli tabiatini teran tushunib yetdi, adabiyot inson ruhiyatiga bog'liq hodisa deb qaradi. «Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'lgan, qaralgan, o'chgan, majruh yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singigan qora balchiqlarni tozalaydurg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on, toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarni yorug'va ravshan qiladurg'on, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydurg'on buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur». Cho'lponning o'ziga xos obrazli ifodalagan bu fikrlari nainki o'z davri, yoxud bugungi kunimiz, balki kelajak uchun ham hech qachon qimmatini yo'qotmaydi.

Cho'lpon – Oktyabrdan ilgari burjua-jadid yozuvchi sifatida maydonga chiqqan kishi. Oktyabrdan keyin ochiqdan-ochiq bolsheviklarga va sovet hokimiyatiga qarshi aktiv kurashib, o'z ijodida aksilinqilobiy millatchilar g'oyasini o'tkazib keldi. Cho'lpon o'zbek millatchilarning balog'atga yetgan, maqtalgan san'atkori bo'lib, millatchilar u bilan faxrlanar edilar. Cho'lpon ko'p yillargacha va hozir ham shu iflos botqoqlik ichida qoldi. “Sozim”, “Jo'r” (bosilmagan) degan she'r to'plamlari bilan “Kecha va kunduz” romani bunga misol bo'la oladi.

“Kecha va kunduz” romanini birinchi bo'limi (“Kecha” qismi) 1936-yilda bosilib chiqdi. Cho'lpon romanning “Kecha” qismida mingboshilarda, chor hukumatining mahalliy amaldorlarida bo'lgan ayrim kamchiliklarni – qo'polliq kabi yomon sifatlarni jadidchilik nuqtai nazaridan tanqid qiladi. Miryoqub, Akbarxon mingboshilarni umuman odamparvar kishilar ravishda tasvirlaydi, (masalan Qum ariqdagi janjalda mingboshi kambag'allar “tarafini oladi”), lekin ularning axloqsizliklari esa jadid bo'lmaganlaridan kelib chiqqan narsa, agar jadid bo'lsalar edi, axloqsiz bo'lmas edilar degan xulosani chiqaradi.

Miryoqub jadid bo'lganidan keyin darhol madaniyatli bir kishi va fazilat egasi bo'lib ketadi. Odamlarga “g'amxo'rlik” qiladi, Masalan, bir fohishani botqoqliqdan qutqarib, o'ziga xotinlikka oladi. Asarda boylar va amaldorlarning mehnatkash

xalqqa qilgan behad zulm-sitamlari-yu vahshiyona eksploatasiya to'g'risida bir og'iz ham gap yo'q.

Asarda o'tmish jamiyatdagi sinfiy qarama-qarshiliklar, sinfiy kurash ongli ravishda tumanli qilib, pardalanadi. Mehnatkash xalqning o'z ezuvchilariga; boylar, mingboshilar, savdogarlar, kolonizatorlarga qarshi inqilobiy qo'zg'olonlari haqida indamay o'tuladi. Yozuvchi ezilgan sinf ichidan ijobiy qahramon topishni ham o'ziga ep ko'rmagan.

Cho'lpon o'tmishdagi sinfiy kurashni ko'rsatishni parnografiya bilan almashtiradi. Shu bilan sovet yoshlarini, o'sib boruvchi bo'g'inni chirik nazariya bilan zaharlamoqchi, buzmoqchi bo'ladi.

Cho'lpon fahshlikni tasvirlaganda uning sosial-iqtisodiy negizini ochib berishni istamaydi. Asar odamni kishiliqdan chiqaruvchi, fahshni tug'diruvchi kapitalizm qonunlariga, eski turmushga qarshi kishida nafrat tuyg'usini qo'zg'atmaydi. Aksincha, eski davr durust edi, faqat ayrim kundoshlargina – Xadicha, Poshshaxon, Saltanatxonlar va fohishaxonalardagi xotinlarning o'zlari yaramas, ular faqat jinsiy orom olish uchun yashaydilar degan natija chiqadi.

Romanda Turkistonni mustamlakaga aylantirgan chor hukumatining, kolonizatorlarning vahshiyona harakatlari, yerli mehnatkash xalqni ezishlari bilaturib pardalangan va kolonizatorlar yaxshi kishilar sifatida ko'rsatigan. Chor hukumatining vakili sifatida berilgan kabi to'rani Cho'lpon juda muloyim, odamparvar, o'zbeklarga yaxshi muomala qiluvchi, katta inqilobiy kayfiyatga ega bo'lgan kishi ravishda ko'rsatadi (O'z oshpazi Zunnunga yaxshi munosabatini va uni mingboshi qilib tayinlaganini eslang).

Yozuvchi "Kecha" orqali jadidlarning mafkurasini tarqatadi, ularga muhabbat bilan qaraydi. Jadidlarni "yaxshi" deb, zamonasining ilg'or kishilari, deb tasvirlaydi. Cho'lpon ularni ham tashqi ko'rinish tarafidan, ham ichki syezgi jihatidan boshqalarga qaraganda ancha yuqorida turgan madaniyatli, aqlli, fazilatli, o'rnak bo'larlik kishilar deb tasvirlaydi; ularni xuddi xalq uchun, xalq manfaati uchun o'zbek millati uchun kurashuvchi sifatida taqdim etadi. Bunga misol qilib jadidlashgan mingboshi Abdusamadni va Ovro'pa mamlakatlari bilan savdo qiluvchi yosh jadid personajlarini ko'rsatish mumkin.

Cho'lpon jadidlarni tasvirlaganda niqoblanadi, jadidlarga to'g'ridan-to'g'ri o'z tili bilan xarakteristika bermasdan bu vazifani asardan kishilarga yuklaydi. Cho'lponning qahramonlari jadidlarni maqtab, ko'klarga ko'taradi.

Miryoqub Finlandiyaga savdo uchun boruvchi jadidni tubandagicha xarakterlaydi: "Mana men endi "jadidni" ko'rib o'tiribman. Erta-kech gapga quloq solaman; qulog'imni uning og'zidan uzib olmayman... bir yomon joyini ko'rganim

yo‘q. Gaplari hammasi ma‘qul. Birovlarning mol-mulkiga chang solaturg‘anga o‘xshamaydi” (204-bet).

Cho‘lpon shu ta‘rif bilan chegaralanmaydi. Fohishaxonadan olib qochilgan Mariya (Maryam) ham jadidlarga xayrixoh. Mariya ongsiz, madaniyatsiz kishilarni jadidlar qanday qilib “tarbiyalaganiga qoyil” qoladi.

“Jakob (Miryoqub) ertadan kechgacha o‘sha bilan (jadid bilan demoqchi) gaplashadi. Men hech narsa anglamayman, o‘z tillarida gazetalar o‘qushadi. Yigit ruscha gazetalar o‘qub tushuntiradi. Bir tomondan olganda bu yaxshi; Jakobning fikri ochiladi. Odam bo‘ladi. Madaniyatlashadi” (200-bet).

Jadidlar xuddi xalq manfaati uchun, Turkistonning milliy ozodligi uchun kurashuvchi qahramonlar, xalqning ko‘zini ochuvchi kishilar sifatida berilgan.

“Jadidning so‘zlari meni qo‘zg‘atib qo‘ydi; uning so‘zlarini men ham boshqalarga xuddi o‘shaning o‘ziday chiroylik va ta‘sirli qilib gapirsam deyman odamlarning ko‘zini ochsam deyman...” (210-bet).

Romanda tarixiy faktlar qastdan, bilaturib buzulib ko‘rsatilgan. Shaxsiy boyishlari yo‘lida kurashgan, shu maqsadlari yo‘lida har qanday ifloslikdan tortinmagan xalq dushmanlari va vatan xoinlari – jadidlarni xalqning haqiqiy o‘g‘illari sifatida tasvirlash tarixni qalbakilashtirishga urunishdan boshqa narsa emas. Cho‘lpon jadidlarni xalq uchun jon kuydiruvchi, inqilobiy kayfiyatga ega bo‘lgan kishilar deb tasvirlaydi, (Finlandiyaga ketayotgan jadidning so‘zlarini eslang). Holbuki, jadidlarning rus boylari, rus chinovniklari, chorizm bilan birga bo‘lib, ular bilan murosa qilganliklari, chorizm va mahalliy eksploatatorlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan mehnatkashlarni dorga osish, surgun qilishda chor hukumatiga ochiqdan-ochiq yordam berganlari tuzumga qarshi kurash o‘rniga o‘z maqsadlarini amaga oshirish uchun podshoh hukumatining mavjudligini bop bir sharoit deb angelaydilar va generallarning, chinovniklarning malaylari bo‘lgan edilar.

Jadidlar jahon urushida chorizm bilan birlashib, do‘stlashib ketdilar. Oq podshohga jahon urushida g‘alaba qozonishni tilagan edilar. 1916 yilda mehnatkash xalq qo‘zg‘olonni bosdirishda asosiy rolni o‘ynagan, oq podshohga madhiyalar aytgan qora kuchlar ham jadidlar edi. Ularning sinfiy basharasini bo‘yab xalq uchun jon kuydirishi, inqilobiy kayfiyatdagi kishilar ravishda berish tarixiy faktni bila turib bo‘yashdan boshqa narsa emas.

“Kecha va kunduz”da xotin-qizlar juda lavashang, bo‘sh, ko‘ngilchang, tez yig‘layturg‘an, jinsiy zavqqa intilaturg‘an qilib ko‘rsatiladi. (Masalan, Zebi, Sultonxon, Poshshoxon, Enaxon). Cho‘lpon xotin-qizlardan kuladi, ularni masxara qiladi; zulmga, xorlash, ezilishga qarshi kuchli nafrat bilan chiqqan mehnatkash, botir, kurashchan xotin-qiz obrazini ko‘rsatmaydi.

Cho'lpon "Kecha"da kamabag'al aravakash O'lmasjon obraziga juda past nazar bilan qaraydi. Zebi mingboshiga tekkandan keyin O'lmasjon jim bo'lib ketadi. Uning qalbi o'ti so'ngan o'choqday sovub ketadi. Buning bilan yozuvchi mehnatkashlarni masxara qilib, ularda sevgi yo'q, ular odamgarchilikdan chiqqan deb tasvirlaydi.

"Kecha va kunduz" romanining "Kecha" qismi o'tmishni bir tomonlama olib, uni ham bo'yagan; savdogarlar, mingboshilar o'rtasidagi madaniyatsizlik, axloqsizlarni jadidchilik nuqtai nazaridan tanqid qilib, xususiy mulkning hukmronligi, ekspluatasiyaning haddan tashqari ekanligini jo'rtaga ko'rsatmaydi. O'suvchi yosh bo'g'inga zararli, yoshlarimizni zaharlovchi parnografiya asarda asosiy o'rin olgan. Asarda haqiqat va baxt-saodat uchun, ozodlik-erkinlik uchun kurashuvchi xalq qahramoni yo'q.

Cho'lpon o'z asarida xalq dushmanlari – jadidlar, aksilinqilobchi millatchilarning qarashlarini talqin etib, millatchilik ideyalarini niqoblaydi va uni targ'ib qiladi. Shunisi qiziqki, O'znashr tomonidan nashr qilingan "Kecha" hech qanday bosh so'zsiz chiqqan. Holbuki asarni ko'rib bergan o'rtoq M.Hasan "Kecha"ning tub g'oyalarini ochib beraturg'an so'z boshi yozmog'i, albatta lozim edi. Cho'lpon va uning fikrdoshlari o'zbek xalqining o'mishdagi inqilobiy kurash tarixini bila turib bo'yab ko'rsatish, mehnatkashlarni masxaralash, jadidlarni maqtash orqali aksilinqilobiy millatchilikni targ'ib etish va har turli meto'dlar bilan sovet adabiyotiga zarar berish yo'llarini qo'llab keladilar. "Kecha va kunduz" asari shu targ'ib usullaridan biridir.

Tarixdan bizga ma'lumki, bu davrda o'lka xalqlari jaholat qurboni sifatida, jahon taraqqiyotidan ancha orqada qolib ketgan edi. Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Hamza va Ayniy singari ma'rifatparvarlar o'z xalqining yorqin kelajagi uchun katta fidoyilik ko'rsatishgan, ularning ijodiy mehnati hozirgi yoshlar uchun ham juda qadrlidir.

Cho'lpon o'zining ma'rifatchilik va mustaqillik g'oyalarini obrazlar ruxiga singdirib yuborgan. Davr tazyiqi ostida ijod qilgan yozuvchi obraz sifatlarini to'la ochib berishga imkon topaolmagan natijada ikkinchi darajali personajlar yoki yordamchi obrazlar badiiy tahlil ob'ektiga aylangan.

Cho'lpon o'z safdoshlari Fitrat, Hamza, Behbudiylar kabi o'z asarlarida qahramonlar timsollarini yaratish orqali xalqqa o'z hayotini ko'rsatish, ularning ko'zini ochish kabi badiiy maqsadni ko'zda tutadi. Cho'lpon dramaturgiya sohasida qalam tebratar ekan, asardagi voqeani sahna orqali o'quvchi ko'zi o'ngida namoyish qilishga intildi. Imsizlik tufayli jaholat qurboni bo'layozgan xalq o'z taqdirini, o'z fojeasini Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Hoji Mo'yin va Cho'lpon kabi dramaturglar ijodi

orqali sahnada ko'rdi va undan qutulish yo'llarini anglashdi.

XX asr boshqa tarixiy davrlardan farqli o'laroq, o'zbek xalqi hayotigayangi g'oyalar olib kirdi. U demokratik ruhdagi o'zgarishlar bilan boshlangan edi. Eron va Turkiyadagi voqealar Turkiston xalqlari hayotiga ham qat'iy ta'sir ko'rsatgan edi. Bu davrda Turkiston xalqlarini G'arb va sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy va madaniy aloqalari kuchaydi. Turkistondagi ilg'or ziyolilarni G'arbdagi madaniyat, taraqqiyot fikrlarini o'g'irlagan edi. Ular o'z asarlarida xalqni yangilikka, o'zligini tanishga da'vat qilishar edi va shu orqali ularni ma'naviyatini boyitishga harakat qilar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultative structures. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6, 291-294.
2. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. *ILMIY XABARNOMA. NAUCHNYY VESTNIK* Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 86-89.
3. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
4. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(03), 52-58.
5. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.
6. Ширинова, Н. Д., & Давлатова, М. Х. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СПОСОБ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ПРЕДМЕТНОСТИ И КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova, 40.
7. Omonov, B. (2021). Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(8).
8. Nurillaevich, O. B., Aralovna, O. G., Shavkatovich, N. K., Khurramovich, M. Y., & Aralovich, O. B. (2022). Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 984-989.
9. Aralovna, O. G., Nurillaevich, O. B., Ayonovna, A. S., & Manzarov, Y. K. (2023). ECOLOGICAL GLOBALIZATION AND ITS SOCIAL PLACE IN THE GLOBALIZATION SYSTEM OF PROCESSES. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(1S), 5000-5006.

10. Omonov, B. (2015). The use of water resources in the center of environmental policy in the region. In The Fifth International Conference on History and Political Sciences (pp. 53-58).
11. Omonov, B. (2023). THE EXPRESSION OF GEOPOLITICAL KNOWLEDGE IN THE WORKS "THE CITY OF VIRTUOUS PEOPLE" AND "INDIA". Open Access Repository, 9(6), 16-20.
12. Nurillaevich, O. B. (2021, February). THE IMPORTANCE OF RELIGIOUS VALUES IN THE FORMATION OF A PERSONAL ECOLOGY CULTURE. In Archive of Conferences (Vol. 15, No. 1, pp. 264-267).
13. Omonov, B. (2016). IS ARAL SEA OR LAKE?(SOME THOUGHTS ABOUT THE REASONS THAT TURNED THE ARAL SEA INTO THE LAKE, MORE PRECISELY INTO THE DESERT" ARALKUM"). Theoretical & Applied Science, (3), 63-67.
14. Omonov, B. N., Ochilova, G. Z. A., & Azamova, S. A. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN. World of Scientific news in Science, 1(3), 15-28.
15. Aralovna, O. G., Nurillaevich, O. B., Shavkatovich, N. K., Khurramovich, M. Y., & Aralovich, O. B. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System.
16. Nurillaevich, O. B., Aralovna, O. G., Shavkatovich, N. K., Khurramovich, M. Y., & Aralovich, O. B. (2022). Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 984-989.
17. Nomozov, X. (2023). INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. Development and innovations in science, 2(7), 8-14.
18. Nomozov, X. (2023). INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI. Farg'ona davlat universiteti, (3), 67-67.
19. Shavkat o'g'li, N. X. (2023). YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI. Research Focus International Scientific Journal, 2(6), 105-110.
20. Shavkat o'g'li, N. X. (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Gospodarka i Innowacje., 22, 229-231.
21. Shavkat o'g'li, N. X. (2023). ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ. The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development, 1(3), 4-9.